XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 30-may VI-81-69-12-0-K/24 Xorazm viloyati

Xorazm viloyatida ichimlik suvi taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish boʻyicha xizmatlar uchun tariflarni belgilash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyulda “Ichimlik suv taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-784-sonli qonunining 45-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xorazm viloyati “Xorazm suv taʼminoti” masʼuliyati cheklangan jamiyati direktori A.Qadirovning axboroti hamda Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasining Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi hamda Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalarining tegishli xulosalari maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Xorazm viloyati “Xorazm suv taʼminoti” masʼuliyati cheklangan jamiyati tomonidan taklif etilayotgan Xorazm viloyatida ichimlik suvi taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish boʻyicha xizmatlar uchun tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 18-oktabda “Ichimlik suvi taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish boʻyicha xizmatlar uchun tariflarni belgilash toʻgʻrisida”gi VI-72-151-12-0-K/23-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

4. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Xorazm viloyati boshqarmasi boshligʻi D.Bekchanova, Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi direktori Oʻ.Matqurbanov hamda “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalari birlashgan tahririyati bosh muharriri S.Raximberganovalarga ushbu qarorni rasman eʼlon qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror rasman eʼlon qilingan kundan oʻn besh kun oʻtgach kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi R.Sherjanov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXIMOV JO‘RABEK RAXIMOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 30-maydagi
VI-81-69-12-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatida ichimlik suvi taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish boʻyicha xizmatlar uchun tariflar

Xizmat turi	**Oʻlchov birligi**	**Narx** (QQSsiz) (soʻm)
Ichimlik suvi narxi		
Aholi uchun	1m^3	3 500
Byudjet tashkilotlari uchun	1m^3	8 000
Ulgurji iste’molchilar uchun	1m^3	8 000
Oqova suvi narxi		
Aholi uchun	1m^3	1 700
Byudjet tashkilotlari uchun	1m^3	2 800
Ulgurji iste’molchilar uchun	1m^3	2 800